



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI



TOSHKENT TIBBIYOT
AKADEMIYASI

ENDOKRINOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI:

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari

TO'PLAMI

Toshkent - 2023

METABOLIK JARROHLIKDAN KEYIN YURAK-QON TOMIR VA ENDOTELIAL TIZIM HOLATINI BAHOLASH

Shagzatova B.X., Adilova N.Sh.
Toshkent tibbiyot akademiyasi

Dolzarbli: Semizlik sog'liqni saqlash tizimining asosiy muammosi bo'lib, yurak-qon tomir kasalliklari va o'lim ko'rsatkichining ko'payishi bilan bog'liq. Dunyo bo'ylab 1,9 milliarddan ortiq yoshi kattalar ortiqcha vazn va semizlik bilan kasallangan. Semizlik arterial gipertoniya, dislipidemiya, qandli diabet 2-turi, metabolik sindrom va obstruktiv uyqu apnoesi kabi semirish bilan bog'liq asoratlar orqali endotelial funktsiyaga ta'sir qiladi. Semizlikda ortiqcha yog ' to'planishi endotelial disfunktsiyaga olib keluvchi oksidlovchi stress, insulinga chidamlilikni buzilishi va yallig'lanishni keltirib chiqaradi. So'nggi bir necha o'n yilliklar davomida yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olish va davolashda semirish natijasida kelib chiqqan endotelial disfunktsiyaning asosiy mexanizmlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ishning maqsadi: ushbu tadqiqotning maqsadi operatsiyadan 24 oy o'tgach, semizlik bilan kasallangan bemorlarda endotelial disfunktsiyaning holatini aniqlashdir.

Tadqiqot materiallari va usullari: antropometrik va biokimyoviy tekshiruv natijalari semizlik bilan kasallangan 18 yoshdan katta 44 nafar (6 nafar erkak va 38 nafar ayol) bemorlarda operatsiyadan oldin va operatsiyadan 24 oy o'tgach to'plangan.

Natijalar: tana vazni indeksi (TVI) va ortiqcha vazn 24 oydan keyin mos ravishda $15,79 \pm 1,21$ kg/m² ($p < 0,01$) va $83,80 \pm 24,5$ % ga kamaydi. C-reaktiv oqsil (CRP) darajasi operatsiyadan keyingi kuzatuvning ikkala nuqtasida operatsiyadan oldingi natijalarga nisbatan sezilarli darajada kamaydi ($p < 0,01$). Transformatsion o'sish omili darajasi-b1 (TGF-b1), 3-purin domeni saqlovchi nodga o'xshash retseptorlar (NLRP-3) , hujayra adgeziyasining vaskulyar molekulasi-1 (sVCAM-1) ($p < 0,01$) gasrtorezekciya jarrohligi amaliyotidan keyin 24 oy davomida kamaydi.

Xulosa: natijalarimiz shuni ko'rsatadiki, gasrtorezekciya jarrohligi amaliyotidan keyin yallig'lanish profilining yaxshilanishi, ya'ni yallig'lanishga qarshi markerlarning kamayishi (CRP, TGF-b1, NLRP-3, sVCAM-1) kuzatilgan. Ushbu natijalar gasrtorezekciya jarrohligi amaliyotini endotelial tizim holatiga ijobiy ta'sirini, shuningdek, yurak-qon tomir kasalliklar xavfini kamaytirishini aniq isbotlaydi.